

ER-XOTIN O‘RTASIDAGI YOSH TAFOVUTI OILAVIY ZIDDIYATLARGA SABAB BO‘LADIMI?

Er-xotin o‘rtasidagi yosh tafovutlari ba’zan oila ichida muammolar va tushunmovchiliklarga sabab bo‘lishi mumkin, lekin bu har doim ham ziddiyat manbayi emas. Masala yoshda emas, balki ikki shaxsning psixologik yetilganligi, kommunikativ madaniyati va bir-biriga bo‘lgan hurmatida. Ilmiy yondashuvda yosh farqlarining oila barqarorligiga ta’siri ko‘proq shaxsiy xususiyatlar, rollar taqsimoti va ijtimoiy stereotiplarga bo‘lgan munosabatga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, katta yoshdagi erkak va ancha yosh ayol o‘rtasida biologik ritmlar, ijtimoiy mavqe, hatto, kundalik qiziqishlar keskin farq qilishi mumkin. Bu holat o‘zaro tushunmovchilik, emotsional sovuqlik va muvofiqlikning yo‘qolishiga olib kelishi ehtimoli bor. Aksincha, ayolning yoshi katta, erkak esa yosh bo‘lsa, ijtimoiy bosim kuchliroq bo‘lishi, erkak o‘zini ikkilamchi rolga tushib qolgan kabi his qilishi mumkin. Ikkala holatda ham ziddiyatning ildizi – jamiyatning kutilmalari, shaxsiy o‘zini anglash darajasi va munosabatlarda ochiqlik yetishmovchiligi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yosh tafovuti mavjud bo‘lgan oilalarda muvaffaqiyatli turmush qurilishi uchun ikkala tomonning o‘zaro hurmat, sabr va doimiy muloqotga tayyorligi muhim ahamiyatga ega. Bu holatda taraflar o‘rtasidagi farqlar muammo emas, balki to‘ldiruvchi jihat sifatida ko‘riladi. Agar har bir tomon o‘zining ijtimoiy roli va majburiyatlarini aniq tushunsa, qaror qabul qilishda mustaqillik va mas’uliyatni baham ko‘rsa, yosh farqlari oradagi bo‘shliqni emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi vosita bo‘ladi.

Yana bir muhim omil – ijtimoiy stereotiplar. Atrofdagilarning doimiy e’tirozi, “u sendan juda katta/yosh” degan gaplar, turmush qurgan juftlikka emotsional bosim o‘tkazadi. Shuning uchun bunday oilalarda ijtimoiy taxminlarga nisbatan mustahkam psixologik immunitet shakllanishi zarur. Juftlik o‘z qaroriga ishonch bilan yondashsa, tashqi bosimlar ta’siri kamayadi. Shuningdek, oila yoshga bog‘liq holda emas, balki psixologik yetuklik, hayotiy tajriba, mos maqsadlar va qadriyatlar asosida aloqa o‘rnatilishi kerak. Turmushdagi doimiy o‘zgarishlarga moslasha olish, muammolarni muloqot orqali hal qilish, rollarni yosh emas, balki shaxsiy kompetensiyaga qarab taqsimlash — bular yosh tafovutidan kelib chiqadigan ziddiyatlarning oldini olishda eng samarali vositalar.

Xulosa qilib aytganda, yosh tafovuti oila mustahkamligiga to‘sqinlik qilmaydi, agar munosabatlar ongli, hurmatli va mas’uliyatli yondashuv asosida qurilgan bo‘lsa bas. Muhimi – o‘zaro farqlarni raqobat deb emas, balki o‘zaro boyitish imkoniyati deb qabul qilish. Ana shundagina yosh emas, qalb uyg‘unligi hal qiluvchi omilga aylanadi.

**Nurmonov Asliddin Xusniddin o‘g‘li,
Oila va gender ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti**